

“SUNBULANING ILK SHANBASI” QISSASIDA XARAKTER VA INSON RUHIYATI TASVIRI

FarDU 1-kurs magistranti

Ibroximova Zaynabxon Akbarjon qizi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshevning ijodiga e‘tibor qaratilgan. Muallifning uslubiy izlanishlari, badiiy asar yaratishda obraz, tasvir xilma-xilligi, uslubiy izlanishlari, ramziy-majoziy ifoda, simvollarni qo‘llash mahorati, ijodkorning individual uslubi, voqelikni bayon etish shakllari, personajlarning o‘zini o‘zi ruhiy yangilashga e‘tibor qaratishi kabi jihatlar “Sunbulaning ilk shanbasi” qissasi tahlili asosida yoritildi. Maqolada adabiy nazariyotchilarning adabiy-nazariy qarashlariga suyanildi. Asardan olingan parchalar (matnlar) asosida obrazlar ruhiy holati, majoziy voqea-hodisalar, ramziylik mavjud tushunchalarga sharh berildi. Asarda aks etgan yetakchi g‘oyalarga izohlar keltirildi. Muallifning voqea tasvirida tanlagan badiiy xronotop (vaqt va makon) masalasiga, qissada aks etgan peyzaj tasviri undagi simvollik ifodalarga misollar keltirilgan holda tahlil etildi. Matndagi obrazlar, roviyning nutq shakllariga mulohazalar bildirildi. Tahlil davomida muallifning badiiy topilmalari va qissaning bugungi o‘zbek nasrida tutgan o‘rniga asosli mulohazalar adabiyotshunos olimlarning nazariyalariga qiyoslangan holda bayon etildi.

Kalit so‘zlar: sentimental, ramz, xarakter, konflikt, ruhiyat tasviri, sarlavha, xronotop.

ABSTRACT:

This article focuses on the work of the writer Abdukayum Yuldoshev. The author's methodological research, the diversity of images and images in creating a work

of art, his methodological research, symbolic and figurative expression, the skill of using symbols, the individual style of the creator, the forms of describing reality, the characters' focus on their own spiritual renewal were covered based on the analysis of the story "Sunbulaning ilk shanbasi". The article relied on the literary and theoretical views of literary theorists. Based on excerpts (texts) from the work, the concepts of the mental state of the characters, figurative events, and symbolism were commented on. Explanations were given to the leading ideas reflected in the work. The issue of the artistic chronotope (time and space) chosen by the author in the description of the event, the landscape image reflected in the story were analyzed, giving examples of symbolic expressions in it. Comments were made on the images in the text and the narrator's speech forms. During the analysis, the author's artistic findings and the place of the story in today's Uzbek prose were presented, compared to the theories of literary scholars.

Keywords: sentimental, symbol, character, conflict, psychological portrait, title, chronotope.

Badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik tushunchalarini bir-biridan ayro holda tasavvur qilish mumkin emas, albatta. Badiiy asarning qiymatini belgilashdagi muhim omillardan biri bu – adabiyotshunoslar tomonidan unda yoritilayotgan muammo, qahramonlar xarakteri, shuningdek mavzu va g'oya, badiiy asar tili, uning kompozitsiyasi va yana bir qancha unsurlarining o'rganilishidir. Ayniqsa, asar poetikasiga to'xtalganda uning eng nozik jihatlariga ham e'tibor berish va kichik bir detalning vazifasini ham ochib berish nazariyotchilar tomonidan amalga oshiriladigan ish hisoblanadi. Hozirgi kunda o'zbek adabiyoti rivojlanib borayotgan tur va janrlardagi o'ziga xosliklar, shakl va mazmunning o'zgarishi, modernistik va posmodernistik adabiyotning shakllanishi, mantiqsizlik nazariyasi va falsafiy asarlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Shu jumladan, nasrda hali qo'l urilmagan sentimental qissalarning paydo bo'lishi ham o'zbek adabiyotidagi muhim voqelikdir. Bu borada Abduqayum Yo'ldoshevning "Sunbulaning ilk shanbasi" asari

fikrimizning yaqqol isboti bo'la oladi. Ushbu qissa muallif o'zi ham ta'kidlaganidek, sentimental qissadir. Bu turdagi asarlarda D.Quronov ta'kidlaganidek, “muallif emotsianalligi ko'rinishlaridan biri; ma'naviy dunyosi g'oyat boy bo'lgan holda, hayotda shunga munosib o'rin topolmagan, taqdirning izmi yoki jamiyatning joriy tartibotlari bir chetga surib qo'ygan insonlarga achinish hissi bilan yo'g'irilgan munosabat”¹. Shuningdek, bu kabi asarlar o'zida konfliktning yo'qligi bilan ham xarakterlanadi, ya'ni bunda xarakterlar o'rtasidagi konflikt ham, ijtimoiy konflikt mavjud bo'lmaydi. Asar boshdan oxirgacha ruhiyat ifodasi, hissiyotlarga yo'g'irilgan bo'ladi. Haqiqatdan ham, Abduqayum Yo'ldoshevning “Sunbulaning ilk shanbasi” asarida qahramon jamiyat bilan yoki biron-bir personaj bilan jiddiy konfliktga kirishmaydi. U o'zini taqdir izmiga tashlaganligi va hayotda yashashdan maqsadi ham faqatgina “sunbula” oyining ilk shanbasini kutish bilan chegaralangan. Sarlavha sharhiga to'xtaladigan bo'lsak, asarning butun bir mohiyatini tashkil etadi. Nega endi aynan sunbulaning ilk shanbasi tanlanganiga ham to'xtaladigan bo'lsak, sunbula burjining arifmetik davri yilning 24-avgustdan 23-sentabrgacha bo'lgan davrni nazarda tutadi. Yoz faslining oxirgi oyi va kuzning birinchi oyiga mos keladigan bu davr asarda ikki yoshning uchrashuv davri hisoblanadi. Demak, sunbulaning ilk shanbasi avgust oyining so'ngiga to'g'ri keladi. Shanba kuni esa arablar xalqlarida haftaning eng so'nggi (dam olish) kuni hisoblanadi. Fors-tojiklarda ham shunday. Bizning turkiy xalqlarimiz esa hafta dushanbadan boshlanadi, shunda shanba haftaning oltinchi kuni, yakshanba esa yakuniy – yettinchi kuni hisoblanadi. Ko'pgina davlatlarda shanba dam olish kuni hisoblanadi. Shanbaning o'ziga xos tarixi ham mavjud bo'lib, bunga ko'ra “shanba” (forsa) – Grigoriy kalendari bo'yicha haftaning jumadan keyingi, yakshanbadan oldingi kuni. Islomdan ilgari arablarda shanba dastlab muqaddas kun sanalgan. Islom dinida juma ibodat va dam olish kuni deb qabul qilingach, Shanba haftaning boshlanish kuni bo'lib qolgan. Boshqa kunlar shunga muvofiq ravishda nomlangan. Sunbulaning ilk shanbasini muallif uch ramziy ma'noda qo'llagan bo'lishi mumkin. Birinchidan – shodlik kuni, tavba-tazarru

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. - Toshkent: “Akademnashr”, 2013.

kuni, sir-asrorlar ochiq lanadigan, bir soʻz bilan aytganda, diydor, visol kunidir; ikkinchidan – ikki yoshning hayotida sodir boʻlgan muhim voqealar kuni; uchinchidan – qahramonlarning har ikkalasi yoki bittasi sunbula burchida tugʻilganligini anglash mumkin. Uchinchi maʼnoga quvvat sifatida asar voqealari, qahramonlar ruhiyatidagi holatlar, shu kunning ular uchun zarurlik darajasini aytishimiz mumkin.

Qissaning yana bir yutugʻi shundaki, asarda hikoyachi – roviy muallifning oʻzi ekanligida, asar boshdan oxirigacha muallif tili bilan bayon qilinadi. Asardagi voqealar uch xronotop (makon va zamon) orasida bayon etiladi. Adabiyotshunos olim B.Karimov bu haqida shunday deydi: “Yozuvchi voqeani muvaffaqiyatli tanlangan bir necha makonda bayon etadi: tahririyat, ikkinchisi – shifoxona (bunda qahramonni bir nechta nigoh orqali kuzatish mumkin), yana biri – uchrashuv joyi. Garchi yigitning ichki dunyosiga dahldor boʻlmasa ham, hikoyachi bir nechta xonimlar bilan aynan shu uchrashuv joyida “toʻqnash” keladi va syujetning jiddiy ravishta qiziqarli tus olishini taʼminlaydi”². Munaqqid bu uch voqea joyini asar syujetini, nihoyatda, qiziqarli boʻlishini taʼminlagan vosita sifatida baholaydi. Bu qarashda haqiqat bor, albatta. Shu bilan birga, bu uchun makon mohiyatan qahramonlarning kundalik yashashi, istaklari, orzulari ushaladigan goʻshadir. Masalan, tahririyat – kundalik maishiy ish, oziq-ovqat uchun pul topiladigan joy, shifoxona – qahramon qalbidagi dardlariga malham beruvchi, uni hech boʻlmaganda jisman sogʻlom boʻlishiga koʻmaklashuvchi joy, uchrashuv joyi – ikki qalbning dardlariga malham boʻluvchi, orzuqib kutilgan diydor, sogʻinch bosiladigan makon.

Asar syujeti xronikali syujet boʻlib, asardagi voqealar birin-ketinlikda sodir boʻladi. Voqealar bayonida baʼzi oʻrinlarda retrospektiv syujet koʻzga tashlansa ham asosiy planda xronika turadi. Qissadagi ismlarga ham eʼtibor qaratadigan boʻlsak, asosiy qahramonlar ismi berilmaydi faqatgina muallif yaʼni roviy ismi Abduqayum va qizning farzandining ismi Valijon va Izmjon ismlari berilgan. bu ham qaysidir maʼnoda kitobxon uchun maʼlum bir odamni emas, qahramonlar oʻrnida istalgan biror-bir oshiqlarni tasavvur qilish imkonini beradi va xayolotini cheklamaydi.

² Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018. 25-bet.

Asardagi qahramonlar ruhiyati ham alohida mahorat bilan ochib berilgan bo'lib oshiqning muhabbatini bilish uchun quyidagi jumlani o'qish kifoya qiladi: "ko'zlaring qanday edi, qoramidi... sochlaring silliqmidi yo qo'ng'iroq... uvoling..." ushbu jumlada oshiqning ayanchli ahvolini tasvirlar ekan, uning oxirgi uvoling so'zi va chizib tashlangan so'zlar asar qahramoni Aptiqayim (asar qahramoni uni shunday atar edi)ni e'tiborini tortadi, ammo hech narsani tushuna omaydi. Bu so'zdan kitobxon shuni anglashi mumkinki, oshiq sevgisiga yeta olmagani, bu uning uvoli ekanligi va oshiq bundan qo'rqishini tushunish mumkin. Bu jumlar qahramonning xatidan olingan bo'lib bu o'rinda maktub ikki xil funktsiya bajaradi, ham badiiy detal, ham asar qahramonining ruhiyatini ochib beruvchi vosita. Asarda qizning tashqi portretiga deyarli to'xtalib o'tilmaydi, umuman olganda, ushbu qissada faqatgina ruhiy portretlarinigina uchratamiz. Yigit vafot etgach, tahririyat bosh muharriri jurnalda ta'ziya e'lon qilish maqsadida u bilan bitta xonada ishlaganga u haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishini so'raydi. Ijod namunalari bo'lsa, uni ham bitta rasmi bilan katta sahifada e'lon qilishni aytadi. Shu sabab hamda bevaqt umri yakuniga yetgan hamxonasining pinhoni dardlariga qiziqishi ortgan roviy undan qolgan hamma narsani izlab topadi. Yigitning yaxshigina havaskor ijodkor ekanligi ma'lum bo'ladi. Undan bir qator she'rlar meros qolganligi oydinlashadi. Asar tahlilida ayni shu ijod namunalari ham muhim o'rin tutadi. Negaki yigit ruhiyati, bir paytlar yo'l qo'yilgan xatolar, afsus-nadomatlar qay darajada ekanligi shu yozma ishlar orqali yanada oydinlashadi. Uning ba'zi ijod namunalarida chinakam falsafiy ma'no, chuqur iztirob, yuksak badiiy tafakkur borligini ham sezish mumkin.

Nechuk asorat bu, sarkash, sargashta,

Nechuk jarohat bu, maddalar bitmas.

Nechuk talafot bu, ruhga payvasta,

Yetti yil yetmadi,

Yetmish yil yetmas³.

³ Yo'ldoshev A. Ishq afsunlari: "Sunbulaning ilk shanbasi". – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019.

Muallif xarakterlar yuzasidan ham faqatgina bosh qahramon bo'lmish oshiq yigitnigina namoyon qiladi. Lekin buni ham qisman xarakter deb aytishimiz mumkin, sababi xarakter tushunchasi adabiyotshunoslikda quyidagicha ma'no anglatadi: “badiiy xarakter muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan inson obrazi”⁴. Bu ta'rifga ko'ra oshiqning umumiy xususiyatlarini o'zida jamlagan qahramon sifatida olishimiz mumkin bo'lsa, yana boshqa jihatdan davr va muhit kishilarining ijtimoiy hayotini o'zida akslantirmaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak yozuvchi ushbu qissada o'zi ko'zlagan maqsadiga erishadi, ya'ni ishqning eng shirin lahzalaridan tortib eng achchiq, eng alamli onlarigacha mahorat bilan ochib beradi. Qissani o'qish davomida qahramonning ruhiy holati o'quvchining ko'z oldida yaqqol namoyon bo'ladi. Ikki sevishgan qalbning jisman birga emasligi kitobxonni ajablantirmaydi, ular qalban birga, ular qalban bir-biriga xiyonat qilishmaydi. Voqealar bir ertakday emas, aksincha, bir insonning boshdan kechirganlari sifatida namoyon bo'ladi. Albattaki, bu o'rinda yozuvchidan katta mahorat talab etiladi. Undagi har bir detal va tasvir o'z vazifasini bajaradi, bu esa asarning badiiy qiymatini oshishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. - Toshkent: “Akademnashr”, 2013.
2. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018.
3. Yo'ldoshev A. Ishq afsunlari: “Sunbulaning ilk shanbasi”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shanba>
5. <https://tushlar.ru/sumbula-burji-24-8-23-9-erkak-va-ayollar-harakterlari-haqida-ma-lumot/>

⁴ Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. - Toshkent: “Akademnashr”, 2013.